



DISINFORMATION AS A MEANS OF MANIPULATION IN THE VIRTUAL WORLD

Suhrob Salomov

Independent researcher

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: disinformation, digital disinformation, manipulation, virtual manipulation, fake information, social networking, messengers, content, trolling.

Received: 04.02.25

Accepted: 06.02.25

Published: 08.02.25

Abstract: The phenomenon of manipulating consciousness through disinformation is explained from various contexts within different historical periods and local civilizations. This has created certain methodological complexities in shaping this phenomenon as a category.

This article analyzes the concept of disinformation, which is part of propaganda and agitation today, the nature and specific characteristics of disinformation actions, as well as its power in the social and state spheres. At the same time, this article also analyzes practical examples and offers recommendations on preventing disinformation attacks.

DEZINFORMATSIYA VIRTUAL OLAMDA MANIPULYATSIYA QILISH VOSITASI SIFATIDA

Suhrob Salomov

mustaqil tadqiqotchi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: dezinformatsiya, raqamli dezinformatsiya, manipulyatsiya, virtual manupulyatsiya, feyk axborot, ijtimoiy tarmoq, messenjerlar, kontent, trolling.

Annotatsiya: Ongni dezinformatsiya vositasida manipulyatsiyalash fenomen sifatida turli tarixiy davrlar va mahalliy tamaddunlar doirasida turli xil kontekstdan turib tushuntirilgan. Bu esa, ayni fenomenni kategoriya sifatida shakllantirishda muayyan metodologik murakkabliklarni yuzaga keltirgan.

Ushbu maqolada esa, bugungi kunda tashviqot va propogandaning bir qismi bo'lgan dezinformatsiya tushunchasi va dezinformatsion xatti-harakatlarning tabiati, o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, uning jamiyat va davlat sohalarida qanday kuchga ega ekanligi tahlil qilinadi. Shuning bilan birga, mazkur maqolada amaliy misollar ham tahlil qilinib, dezinformatsion xurujlarning oldini olish bo'yicha tavsiyalar ham taklif qilingan.

ДЕЗИНФОРМАЦИЯ КАК СРЕДСТВО МАНИПУЛЯЦИИ В ВИРТУАЛЬНОМ МИРЕ

Сухроб Саломов

Независимый исследователь

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дезинформация, цифровая дезинформация, манипуляция, виртуальная манипуляция, фейковая информация, социальные сети, мессенджеры, контент, троллинг.

Аннотация: Феномен манипулирования сознанием как средства дезинформации был объяснен с разных точек зрения в различных исторических периодах и в рамках местных цивилизаций. Это создало определенные методологические сложности в формировании данного феномена в качестве категории.

В данной статье анализируется понятие дезинформации, являющейся частью пропаганды и агитации в современном мире, природа и характерные особенности дезинформационных действий, а также их влияние на общество и государство. Кроме того, в статье проанализированы практические примеры и предложены рекомендации по предотвращению дезинформационных атак.

Kirish va mavzuning dolzarbligi.

So'nggi yillarda ijtimoiy media kontentlar misli ko'rilmagan progressiv o'sishni boshdan kechirmoqda. Forbes ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda butun dunyo bo'ylab 5,35 mlrd aholi internetdan foydalanmoqda. Bunday holatda platformalar tegishli moderatsiya, xavfsizlik va boshqa himoya choralariga sarmoya kirita olmagan uchun foydalanuvchilar ongini manipulyatsiya qilish kuchaymoqda. Virtual manipulyatsiya tendensiyasi qora PR va mish-mishlarni ommaga yoyishda misli ko'rilmagan katta tezlikda taraqqiy etib bormoqda. Bu esa

dezinformatsiya to'liqini kengaytirib, ommaning manipulyatsiya doirasiga tushib qolishiga olib kelmoqda.

Dezinformatsiya atamasi to'g'risida so'z borar ekan, bu tushunchani "noto'g'ri ma'lumot" bilan tenglashtirmaslik zarur deb hisoblaymiz. Garchi bu ikki atama ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatilsa-da, ular o'rtasida tadqiqotchilar e'tiborga olishlari kerak bo'lgan farqlar mavjud. Dezinformatsiya torroq tushuncha bo'lib, ma'lum bir guruh yoki aholi orasida qo'rquv va shubha uyg'otish uchun qasddan yolg'onga asoslangan destruktiv kontentni tarqatishdir.

Tadqiqotchilar tomonidan virtual manipulyatsiyani yoritish shaxsiy daxlsizlik to'g'risidagi qonunlar qabul qilinishi, yangi ijtimoiy media platformalari paydo bo'lishi va bu masalaga keng jamoatchilik e'tibor qaratishi bilan rivojlandi. Soxta ma'lumotlar hanuzgacha veb-saytlar hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalmoqda. So'nggi izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarda Facebook yolg'on ma'lumotlarni targ'ib qilish uchun eng qulay platformalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq, TikTok, Telegram, Instagram va boshqa messenjerlar ham yolg'on axborotlarni tarqatish yoki qasddan tushunmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi kuchli vektorlarga aylandi.

Umuman milliy axborot manbalari va ijtimoiy tarmoq platformalarida virtual dezinformatsion tashviqotlarning tarqalishi shunchaki bir martalik tarmoq algoritmlariga asoslangan xatolik emas. Bu borada sohani tadqiq etayotgan shaxs avvalo manipulyatsion xatti-harakatni to'g'ri baholab, uning alohida hodisa yoki keng ko'lamlı manipulyatsion harakat ekanligini anglab olishi zarur. Chunki? mazkur tendensiya turli saytlarni qamrab olishi va yagona bir tarmoq sistemasini tashkil qilishi ham mumkin.

Ushbu o'ziga xos sistemani esa, bir xil xabarni umumiy tarzda tarqatadigan turli xil ijtimoiy tarmoqlardagi hisoblar o'rtasidagi aloqalarni kuzatish, tahlil qilish va muvofiqlashtirish orqali tasvirlash mumkin. Bu holatda esa, bir nechta omillar yordam berishi mumkin. Xususan, kontent tarqatayotgan hisoblar (akkauntlar) qachon yaratilgan, kontent boshqalar tomonidan qanchalik tez ulashilmoqda, uni turli platformalarda kimlar kuzatgan va kontentning o'zida qanday umumiyliklar bor? Misol uchun, bir xil veb-sayt ham Facebook, ham Twitterda, ham Instagramda targ'ib qilinishi yoki TikTokda aynan boshqa ko'rinishdagi lavhalar bilan yuqoridagi muammoni juda o'xshash til bilan namoyish etilishi mumkin.

Virtual manipulyatsiya sohasini tadqiq etayotgan subyekt kontentning kelib chiqishi va uni tarqatish maqsadini yuqori darajada aniqlashi uchun mavjud barcha an'anaviy va raqamli usullardan foydalanishlari kerak. Davlat idoralari yoki xususiy korporatsiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kompaniyalar, ba'zida fitna nazariyalariga chin dildan ishonadigan xususiy shaxslarning tashabbuslari bilan solishtirganda juda kuchli tarzda ajralib turadi. Ya'ni manipulyatsion axborotlar o'zining aniq kuch ta'siriga ega. Ularning kelib chiqishini aniqlash har

doim ham mumkin emas. So‘nggi paytlarda ayrim PR texnologlar o‘z mijozlarining “obro‘sinini oqlash” antiPR texnologlar esa siyosiy liderlar va xalq e‘tiborini qozongan shaxslarni “obro‘sizlantirish” uchun tobora ko‘proq dezinformatsion xurujlarni uyushtirmoqda, bu esa Internetda kim aslida kim ekanligini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Virtual olamda ijtimoiy tarmoq va messenjerlar orqali omma ongini manipulyatsiya qilish masalasi nisbatan yangi tadqiq etilayotgan yo‘nalishlardan biri sanaladi. Umuman ongni dezinformatsiya vositasida manipulyatsiyalash fenomeni qadim sivilizatsiyalar davrlaridan buyon mutafakkirlar va olimlar diqqatini tortib kelayotgan hodisa sanaladi. U kishilik jamiyatining dastlabki davrlaridanoq mifologik, falsafiy hamda siyosiy muhokamalar markazida bo‘lib kelgan jumladan, qadimgi Xitoy manbalarida u boshqaruv san‘atining ajralmas elementi sifatida talqin etilgan. Qadimgi Hind manbalarida ham ayyorlik masalalari tanqidiy ko‘rib chiqilgan, qadimgi Yunon mifologiyasida ham ayyorlik mabudi Germes sanalgan. Keyinchalik esa, sofistlar maktabi, hamda notiqlik san‘ati doirasida shakllangan muvoffaqqiyatli va ishonarli nutq qurish texnikasi borasidagi qarashlar ham manipulyativ ta’sir usullarining takomillashishi uchun muayyan nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, ongni manipulyatsiyalash fenomeni ijtimoiy-siyosiy va madaniy nuqtai nazardan N.Makiavelli, E. Berk, A.Gramshi, Z.Bjezinskiy, A.Mol singari mutafakkir va tadqiqodchilar izlanishlarida chuqur tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. AQShning yaqin tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2021- yilning 20-yanvarida Qo‘shma Shtatlarning 46-prezidenti etib saylangan Jo Bayden faoliyatida uni obro‘sizlantirish bilan bog‘liq bir qator lavhalar jahon OAV larida faol tarqatilgan.

Xususan, 2024-yil 22-noyabr oqshomida Prezident Jo Bayden o‘z rafiqasi Jill Bayden bilan “Oq uy – AQSH prezidentlari qarorgohi” da kechki ovqatni birga tanovul qilish jarayonida, u o‘z rafiqasi Jill Baydenning turmush o‘rtog‘i ekanligidan fahrlanishini ta’kidlagan. Baxtga qarshi mazkur so‘zlar rus ommaviy axborot vositalarida “Men Baydenning eri bo‘lishdan fahrlanaman (ya’ni o‘ziga o‘zi turmushga chiqqan ma’nosida)” deya noto‘g‘ri tarjima qilinib, ijtimoiy tarmoq va messenjerlarda faol sizdirilgan. Bu esa, tabiiyki, “Oq uy”ning o‘rinli e’tirozlariga sabab bo‘lgan”.

Raqamli dezinformatsiya etnik tozalash, zo‘ravonlik va urushni qo‘zg‘atish uchun ishlatilgan kuchli vosita hamdir. Bu butun dunyo bo‘ylab sog‘liqni saqlash tizimlariga salbiy ta’sir qilib, so‘nggi o‘n yillikdagi saylov kampaniyalarida asosiy rolni o‘ynadi va matbuot erkinligi

sohasiga jiddiy zarba berdi. Virtual manipulyatsiya mavjud ijtimoiy qarama-qarshiliklarni kuchaytirishga qaratilgan va ularni ba’zan xavfli darajaga olib keladigan raqamli kuchdir.

Dezinformatörler orasida keng tarqalgan metodlardan biri bu mamlakat yoki jamiyatda mavjud bo’lgan ijtimoiy muammoni aniqlash maqsadida keskinlik va kelishmovchiliklarni kuchaytirishga harakat qilishdir. “trolling” ham buning eng keng tarqalgan usullaridan biri sanaladi.

Kelishmovchilik va dixotomiyani kuchaytiradigan kontentni joylashtirish ijtimoiy tarmoqlarda auditoriyani jalb qilishning eng yaxshi usullaridan biri bo’lib bormoqda. Dezinformatsiya - bu strategiya. U moliyaviy yoki siyosiy boyish, ta’sir o’tkazish, hatto qonunchilik hamda saylov natijalarini o’zgartirish uchun ham ishlatilishi mumkin.

2016-yildagi AQShda bo’lib o’tgan prezidentlik saylovlarida AQShning 45- prezidenti, respublikachilar partiyasi nomzodi Donald Trampning hokimiyatga kelishi yuzasidan tarqalgan axborotlarni ko’rib chiqsak. Go’yoki Rossiyaning 2016-yildagi AQSh prezidentlik saylovlariga aralashuvi Hillari Klintonning saylovoldi kampaniyasiga zarar yetkazgan va D.Trampning g’alabasini ta’minlagan. Mazkur xabarlar AQSh jamoatchiligi orasida shu qadar kuchli rezonansni shakllantira oldiki, Vashington ko’chalarida “Trampga ovoz bering – bu Putinning tanlovi! Kreml nomzodi!”, “Tramp – Putinning prezidenti”, “Putinning tanlovi – mening prezidentim” shiorlari ostida norozilik namoyishlari bo’lib o’tdi. Rossiya rasmiylari va prezident Putin tomonidan yuqoridagi ma’lumotlar yillar davomida rad etib kelingan bo’lsa-da, bu bo’yicha 2023 – yilda prokuror J.Durham tomonidan o’tkazilgan tergovlardan so’ng ham Tramp va Rossiya razvedka xizmatlari o’rtasidagi aloqalar mavjudligi asossiz deb topildi.”

Yuqoridagi kabi dezinformatsion urinishlarga yaqin tarixda ko’plab misollarni keltirish mumkin.

Yana bir misol, Kongo Demokratik Respublikasida kuzatilgan. U yerda Facebook sahifalari ma’murlari COVID-19 pandemiyasi paytida juda samarali dezinformatsiya kampaniyasini boshladilar. Ular taniqli jamoat arboblari, jumladan, yuqumli kasalliklar bo’yicha fransuz mutaxassisi, JSST direktori, Madagaskar va Fransiya prezidentlaridan yolg’on iqtiboslar keltirib emlashga qarshi asossiz targ’ibot va soxta dorilar haqida fitna nazariyalarini tarqatadilar. “FRANCE 24” sharhlovchilaridan iborat guruh mazkur holatni o’rganib oxir-oqibat dezinformatorlar guruhining kinshasalik 20 yoshli vakilini qidirib topadilar. So’roqlar davomida esa, talaba yigit ushbu xatti-harakati bilan ijtimoiy tarmoqlardagi o’z sahifasi obunachilarini ko’paytirishni maqsad qilgani va bu orqali kontentlar ommabopligini oshirmoqchi bo’lganini tan oladi.

“Filippinda esa dezinformatorlar siyosiy jarayonlarga aralashib, saylov jarayonlariga ta’sir o’tkazishga urinishgan.” Mualliflar Jonatan Korpuz Ong va Samuel Kabbuag Filippindagi 2019

yilgi saylovlarda soxta ismlardan foydalangan trollarning rolini yoritib berishdi. Ular o'z o'rganishlari natijasida Internetning ushbu past profilli segmenti siyosiy xabarlarni targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi degan xulosaga kelishdi.

Xulosa va takliflar.

1. Xulosa qilib aytilish mumkinki, dezinformatsion xatti-harakatlar bugungi kunda real hayot va virtual olamni qamrab olishni uddalamoqda.

2. Shuningdek, ular lokal doiralardan chiqib, global miqyosda ham o'z ta'sir doiralarini tobora kengaytirishga va shu orqali kuchsiz jamiyatlarni manipulyatsiya qilish orqali "zabt etishga" urinishmoqda.

3. Dezinformatsion xurujlarni oldini olishning klassik usul va uslublari, ya'ni matbuot va teledasturlarni cheklash bugungi kunga kelib jahon hamjamiyatida davlatlarning obro'sini ochiqdan ochiq tushirib yuboradi, shuningdek, birgina ijtimoiy tarmoqlarning o'zini cheklash mamlakatlar byudjetida milliardlab zararlarni yetkazadi. Shu sababli ham dezinformatsion xurujlardan saqlanish uchun avvalo, axborotni to'g'ri iste'mol qilish madaniyatini shakllantirish hamda tarqalib borayotgan xabarlarning soxtasini haqiqiydan ajrata olish ko'nikmalarini aholi ongida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. ["Ion Mihai Pacepa and Ronald J. Rychlak \(2013\), Disinformation: Former Spy Chief Reveals Secret Strategies for Undermining Freedom, Attacking Religion, and Promoting Terrorism, WND Books, pp. 4–6, 34–39, 75, ISBN 978-1-936488-60-5"](#).

2. Гл. ред. А.М.Прохоров. Большая Советская Энциклопедия. — 3. — М.: Советская Энциклопедия, 1972. — С. 29. — 592 с..

3. [В мире неопределенности: охота за нашим вниманием"](#).

4. [What is disinformation? What is the difference between misinformation and disinformation? And when does false news become dangerous? An introduction to a complex problem.](#)

5. Tandoc, Edson C. The facts of fake news: A research review. // Oxford: Wiley, 2007. — 2019.

6. Joshua Tucker, Andrew Guess, Pablo Barbera, Cristian Vaccari, Alexandra Siegel. Social Media, Political Polarization, and Political Disinformation: A Review of the Scientific Literature // SSRN Electronic Journal. — 2018. — ISSN 1556-5068. — doi:10.2139/ssrn. 3144139.

7. [„Чем отличается недостоверная информация от дезинформации? И при каких условиях ложные сообщения начинают представлять опасность? Введение в комплексную проблематику.“](#).

8. [„Fake news. It's complicated. Claire Wardle“](#).

Internet materiallari

9. www.forbes.com
10. www.daryo.uz
11. Wikipedia meterillari
12. www.nytimes.com
13. www.scholarworks.umass.edu